



ANALYTICAL ISSUES OF THE TRANSFORMATION OF SOCIO-PHILOSOPHICAL IDEAS IN THE SYSTEM OF SOCIAL DEVELOPMENT

Ijod Akhmedov

Director of the Jizzakh Pedagogical Skills Center, associate professor

imkoniyat2021@gmail.com

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: development, socio-philosophical, transformation of ideas, strategy, community, new vision, globalization, strategy of actions.

Received: 20.10.25

Accepted: 21.10.25

Published: 22.10.25

Abstract: This article comprehensively covers the transformation of socio-philosophical ideas in the system of our country's development strategy, examines the current demands, modern solutions, political and philosophical analysis, and socio-philosophical analysis of the development strategy.

JAMIYAT TARAQQIYOT TIZIMIDA IJTIMOY-FALSAFIY GO'YALAR TRANSFORMATSIYASI TAHLILIY MASALALARI

Ijod Axmedov

Jizzax pedagogik mahorat markazi direktori, dotsent

imkoniyat2021@gmail.com

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: taraqqiyot, ijtimoiy-falsafiy, g'oyalar transformatsiyasi, strategiya, hamjamiyat, yangicha qarash, glaballashuv, harakatlar strategiyasi.

Annatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz taraqqiyot strategiyasi tizimida ijtimoiy-falsafiy go'yalar transformatsiyasi atroflicha yoritilgan bo'lib, hozirgi zamon talablarining, zamonaviy yechimlari, siyosiy va falsafiy jihatdan tahlil etilgan, rivojlanish strategiyasining ijtimoiy falsafiy tahlillari ko'rib chiqilgan.

АНАЛИТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ТРАНСФОРМАЦИИ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИХ ИДЕЙ В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ

Ижод Ахмедов

Директор Джизакского центра педагогического мастерства, Доцент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: развитие, социально-философский, трансформация идей, стратегия, сообщество, новое видение, глобализация, стратегия действий.

Аннотация: В статье всесторонне рассматривается трансформация социально-философских идей в системе стратегии развития нашей страны, рассматриваются актуальные требования, современные решения, политико-философский анализ и социально-философский анализ стратегии развития.

Bugungi keng tarmoqda rivojlanayotgan g'oyalar, islohatlar va yangicha dunyoqarash, insoniyat va jamiyatni teran fikrlashga davat etmoqda. Rivojlanayotgan davlatlarning barcha siyosiy islohatlari, yagona tizimga yondashgan holda barqarorlikni taminlash va jamiyatda yangicha yangicha jabhalarda ko'rinayotgan global muammolarni bartaraf etishga qaratilgan yangi kadrlar islohatini ko'rib chiqish, yangi ish o'rinlari yaratish jahonning global chaqiriqlariga ijobiy tus bergan holda yangicha dasturlar yaratish mexanizimi siyosatning va ijtimoiy falsafaning yetakchi vazifalari bo'lib xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi nuqtayi nazarga asoslangan holda yurtimizda ham bir qancha keng ko'lamli ishlar salohiyatini ko'rishimiz mumkin. Xususan «O'zbekiston – 2030» strategiyasi, “Inson – jamiyat – davlat” tamoyili, “Xalq uchun xizmat qilish”, “Adolatli jamiyat qurish”, “Islohot – islohot uchun emas, inson uchun” kabi ilg'or g'oyalar va ularning jamiyat ongida transformatsiyaga sabab bo'layotgan jarayonlari tahlil etiladi. Bu borada davlat siyosatining g'oyaviy negizlari milliy manfaatlar va umuminsoniy tamoyillar uyg'unligi asosida shakllanayotgani, ijtimoiy faollik va fuqarolik pozitsiyasi mustahkamlanib borayotgani ko'rsatiladi. Prezident Shavkat Mirziyoevning asarlari, nutqlari va islohot dasturlari mazkur jarayonning falsafiy zaminini belgilab beradi.

O'zbekiston Prezidenti tomonidan qabul qilingan Harakatlar strategiyasi va Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari ijrosining besh yillik «yo'l xaritalari» hisoblanadi. 2021-yilning iyunida Buxoro shahrida Parlamentlararo Ittifoq bilan hamkorlikda «Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda global parlamentlararo hamkorlik» xalqaro forumi o'tkazildi. «Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va inson huquqlarini ta'minlashda parlamentlar rolini oshirish» borasidagi tashabbusimizning BMT Bosh Assambleyasi tomonidan rezolyusiya ko'rinishida qabul qilinishi bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi bo‘lib inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar tizimini tashkil etdi. Parlament Ombudsmani, Bolalar Ombudsmani, Biznes-Ombudsman va Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz ushbu tizimga kiradi.

Yangi O‘zbekiston strategiyaning bosh g‘oyasi fuqarolik jamiyati institutlari rolini kuchaytirish, inson huquqlarini himoya qilish, kambag‘allikni kamaytirish, har bir kishini kafolatli daromad manbai bilan ta‘minlash hamda barqaror ekologik rivojlanishga erishishdan iborat.

Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomidir. Taraqqiyot o‘zgarishlarining yangi tarixiy bosqichda davom ettirilishi ko‘zda tutilgan holda, Taraqqiyot strategiyasiga 2 ta yangi ustuvor yo‘nalish qo‘shildi. Bulardan biri – ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchisi – O‘zbekistonning dunyoda yuz berayotgan global muammolarga munosabati negizida belgilangan yangi ustuvor yo‘nalishdir .

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida «xalq bilan ochiq muloqot mexanizmini yanada takomillashtirish, muhim qarorlarni jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda qabul qilish amaliyotini kengaytirish, davlat organlariga kelib tushgan murojaatlarni ko‘rib chiqish jarayonini raqamlashtirish, murojaatlarni tezkor va sifatli ko‘rib chiqilishini ta‘minlash ko‘zda tutilgan. Eng asosiysi, «Davlat xalqqa xizmat ko‘rsatishi shart» g‘oyasini tatbiq etishni nazarda tutuvchi «Xalqchil davlat» milliy dasturi ishlab chiqildi .

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma‘naviy asoslari haqidagi bilimlarini takomillashtirish, ushbu sohada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlar bilan yaqindan tanishtirish va sohadagi muammolarni aniqlash, tahlil etish va baholash bilan bog‘liq ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish muammolarini o‘z oldiga qo‘yadi.

Taraqqiyot strategiyasini ijro qilish bo‘yicha mexanizm takomillashtirildi. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni bilan strategiyani amalga oshirish bo‘yicha milliy komissiya tarkibi tasdiqlandi. E’tiborli jihati shundaki, ushbu komissiya tarkibi mamlakatdagi davlat organlari mas’ullari va jamoatchilik faollaridan tarkib topgan.

Bugun dunyoning barcha mintaqalarida globallashtirish jarayoni ijtimoiymadaniy hodisalarga o‘zining turlicha ta’sirini o‘tkazmoqda. Bunday ta’sirning bir xil emasligi dunyo mamlakatlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, axborot, ma‘naviy salohiyatlari va geosiyosiy omillar bilan chambarchas bog‘liq. Olamda yuz berayotgan bu kabi shiddatli jarayonlarning avj olishi sharoitida milliy ma‘naviyatga qaratilgan tahdidlar tobora oshib bormoqda. Buning asosiy sababi ma‘naviyatning millat ongi, dunyoqarashi va mentalitetini tashkil etish bilan bog‘liqdir.

Ularni turli xil zamonaviy usul va vositalar yordamida o'zgartirish orqali millatni, mamlakatni va uning barcha boyliklarini qo'lga kiritish mumkin bo'ladi. Ma'naviyatning inqirozga yuz tutishi, albatta, mamlakatning taraqqiyotdan orqada qolishiga, boshqa davlatlarning izmida bo'lishiga olib keladi.

Inson hayoti tajribasi, faoliyati, bilimi, ilmi, odob-axloqi, hatti-harakati bilan o'zining ma'naviy olamini boyitib boradi. Aqlan va axloqan boyib borgan sari o'z oldiga oliyjanob vazifalarni qo'yib, unga erishish uchun harakat qiladi. Harakat esa ma'naviy zaminni talab qiladi. Ma'naviy kamolot jarayonida inson xarakteri toblanadi.

So'nggi yillarda yoshlarning ma'naviy-mafkuraviy tafakkurini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Buni amaldagi hukumat tomonidan mazkur sohaga qaratilgan e'tiborning ortib borayotgani, qabul qilinayotgan qaror va boshqa huquqiy hujjatlardan ko'rish mumkin. Shunday hujjatlardan biri – bu qabul qilinishi kutilayotgan “Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasi va uni amalga oshirish milliy dasturidir. Davlatimiz rahbari SH Mirziyoyev ishlab chiqiladigan konsepsiyadan kutiladigan natijalar haqida to'xtalib o'tgan.

- Bu, avvalo, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizni davr talablariga mos ravishda boyitish va rivojlantirish, shu orqali jamiyatning madaniy va ma'rifiy yuksalishiga erishish imkonini beradi.

- O'z navbatida, bu jamiyat a'zolarining ongi va tafakkurini, hayot falsafasi va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

- Bunda, aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash – oliy maqsaddir.

- Ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot va badiiy ijod sohalarining mamlakatimiz taraqqiyotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirishga qaratilgan alohida dasturlar qabul qilinadi.

- Ijodkor ziyolilarga doimiy e'tibor qaratish, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, mehnat va yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan ishlar davom ettiriladi.

- Madaniyat va sport muassasalari, teatr va muzeylarning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

- Hududlarning madaniy yuksalishi, xalq hunarmandchiligini ravnaq toptirishga qaratilgan manzilli ishlarni tizimli asosda olib boriladi.

- Mamlakatimizda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash, fuqarolarimizni turli mafkuraviy tahdidlardan, zararli oqim va g'oyalardan himoya qilish masalalari bundan buyon ham diqqat markazida bo'ladi.

- Muqaddas dinimiz, ezgu fazilatlarimizning mujassam ifodasi sifatida qadrlanadi. Yurtimizda turli diniy konfessiyalar uchun zarur sharoit yaratishga qaratilgan siyosat izchil davom ettiriladi.

Xulosa sifatida shuni aytamizki, Mamlakatimiz taraqqiyot strategiyasi tizimida ijtimoiy-falsafiy go'yalar transformatsiyasi ijtimoiy falsafaning nazariy vazifasi ijtimoiy taraqqiyot jarayonining mohiyati, mazmuni va yo'nalishini asoslab beradi. Uslubiy vazifasi ijtimoiy hayotdagi ayrim hodisa va jarayonlarni turli ijtimoiy fanlar tomonidan tadqiq etishda uning qonuniyatlaridan foydalanishdan iborat. Mamlakatimiz taraqqiyot strategiyasi tizimida ijtimoiy-falsafiy go'yalar transformatsiyasi falsafaning oldindan aytish vazifasi jamiyat, uning ayrim tomonlari taraqqiyoti, inson faoliyatining yaqin va bo'lajak oqibatlarini oldindan aytib berishdan iborat. Mamlakatimiz taraqqiyot strategiyasi tizimida ijtimoiy-falsafiy go'yalar transformatsiyasi falsafaning mazkur vazifalari falsafiy tafakkur nazariyasi va uslubini egallagan har bir inson ongining takomillashuvida namoyon bo'ladi. Falsafiy tafakkur esa jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy hodisalarni anglash va yangicha amaliy vazifalarni hal qilishning muhim vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni.
2. O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari ijrosining besh yillik «yo'l xaritalari» hisoblanadi. 2021-yilning iyunida Buxoro shahrida Parlamentlararo Ittifoq bilan hamkorlikda «Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda global parlamentlararo hamkorlik» xalqaro forumidagi ma'ruzasi.
3. Набиев, Б. М. (2022). Жамиятда ижтимоий-сиёсий барқарорликни мустаҳкамлашда маънавиятни ўрни. Science and Education, 3(10), 570-573.
4. Набиев, Б. М. (2023). Глобаллашув шароитида ўзбекистон ижтимоий-сиёсий барқарорлигига таҳдид солувчи ахборот хавфсизлигини таъминлаш: муаммо ва ечимлар. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 95-98.